



UDK:91.2

Davronbek ABDIMITALOV,
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

DSc, professor I.Siddiqov taqrizi asosida

DAVLAT XIZMATLARIDA MANFAATLAR UYG'UNLIGI VA BARQAROR TARAQQIYOT STRATEGIYASI

Anotatsiya

Maqolada davlat xizmatlari tizimida manfaatlar uyg'unligini ta'minlash va uni barqaror taraqqiyot strategiyasi bilan uzviy bog'lashning nazariy hamda amaliy jihatlarini ilmiy asosda tahlil etiladi. Tadqiqotda davlat, jamiyat va shaxs manfaatlarining muvozanatlashuvi davlat xizmatlarining samaradorligi va ijtimoiy taraqqiyotning barqarorligi uchun muhim omil ekanini ilmiy dalillar asosida yoritiladi. Shu bilan birga, barqaror taraqqiyot strategiyasi doirasida davlat xizmatlarida shaffoflik, hisobdorlik, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorlikning ahamiyati ko'rsatib beriladi. Jahon tajribasi va milliy islohotlar kontekstida davlat xizmatlarining barqaror taraqqiyot drayveriga aylanishi, manfaatlar uyg'unligi orqali ijtimoiy adolat va barqaror rivojlanishga erishish yo'llari asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Davlat xizmatlari, manfaatlar uyg'unligi, barqaror taraqqiyot strategiyasi, fuqarolik jamiyati, shaffoflik, hisobdorlik, innovatsiya, ijtimoiy barqarorlik.

ГАРМОНИЯ ИНТЕРЕСОВ И СТРАТЕГИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ В ГОСУДАРСТВЕННЫХ УСЛУГАХ

Аннотация

В статье с научной точки зрения анализируются теоретические и практические аспекты обеспечения гармонии интересов в системе государственных услуг и её органичной связи со стратегией устойчивого развития. В исследовании на основе научных доказательств раскрывается, что баланс интересов государства, общества и личности является важным фактором эффективности государственных услуг и устойчивости социального развития. Кроме того, в рамках стратегии устойчивого развития показывается значение прозрачности, подотчётности, внедрения инновационных технологий и взаимодействия с институтами гражданского общества в государственных услугах. В контексте мирового опыта и национальных реформ обосновывается превращение государственных услуг в драйвер устойчивого развития и достижения социальной справедливости и стабильного прогресса через гармонию интересов.

Ключевые слова: Государственные услуги, гармония интересов, стратегия устойчивого развития, гражданское общество, прозрачность, подотчётность, инновации, социальная стабильность.

HARMONY OF INTERESTS AND THE STRATEGY OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT IN PUBLIC SERVICES

Annotation

The article scientifically analyzes the theoretical and practical aspects of ensuring the harmony of interests in the system of public services and its organic linkage with the strategy of sustainable development. The study, based on scientific evidence, highlights that balancing the interests of the state, society, and the individual is an important factor for the effectiveness of public services and the stability of social development. Furthermore, within the framework of the sustainable development strategy, the importance of transparency, accountability, the introduction of innovative technologies, and cooperation with civil society institutions in public services is demonstrated. In the context of global experience and national reforms, it is substantiated that public services can become a driver of sustainable development, achieving social justice and stable progress through harmony of interests.

Key words: Public services, harmony of interests, sustainable development strategy, civil society, transparency, accountability, innovation, social stability.

Kirish. Hozirgi globallashuv davrida davlat boshqaruvi tizimi va uning ajralmas qismi bo'lgan davlat xizmatlari institutlari jamiyat taraqqiyotining hal qiluvchi omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Xususan, davlat xizmatlari orqali aholining ehtiyojlari qondiriladi, ularning ijtimoiy manfaatlari ta'minlanadi, jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun zarur bo'lgan huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlar yaratiladi. Shu nuqtai nazardan, davlat xizmatlarida manfaatlar uyg'unligini ta'minlash masalasi dolzarb ilmiy va amaliy muammolardan biri hisoblanadi. Chunki davlat, jamiyat va shaxs manfaatlarining uyg'unlashuvi bevosita ijtimoiy barqarorlik, siyosiy ishonch, iqtisodiy taraqqiyot va ma'naviy yuksalishning kafolati sifatida namoyon bo'ladi. Manfaatlar uyg'unligi tushunchasi falsafiy, huquqiy, ijtimoiy va siyosiy nuqtai nazardan turlicha talqin etiladi[1]. Falsafiy yondashuvda bu tushuncha jamiyat a'zolarining umumiy maqsad va

qadriyatlarini birligi sifatida izohlanadi. Huquqiy nuqtai nazardan esa manfaatlarning uyg'unligi qonunchilikda belgilangan huquq va majburiyatlarning o'zaro muvozanatlashuvi, ularni amalga amalga oshirish mexanizmlari bilan bog'liqdir. Siyosiy yondashuv manfaatlar uyg'unligini ijtimoiy guruhlar, partiyalar va institutlar o'rtasidagi kelishuvlar, murosalar va hamkorlik jarayoni sifatida ko'radi[2]. Shu boisdan, davlat xizmatlari tizimida manfaatlar uyg'unligi faqatgina bir tomonlama jarayon emas, balki ko'p qatlamli, murakkab va dinamik tizimdir. Barqaror taraqqiyot strategiyasi esa davlat xizmatlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, BMT tomonidan ilgari surilgan "Barqaror rivojlanish maqsadlari" konsepsiyasida ham muhim o'rin egallaydi[3]. Mazkur strategiya iqtisodiy o'sishni ta'minlash bilan birga, ijtimoiy tenglik, ekologik muvozanat va institutsional barqarorlikni ham nazarda tutadi. Davlat xizmatlari tizimida ushbu strategiyani amalga oshirish, bir

tomondan, manfaatlarining uyg'unlashuviga asos bo'lsa, ikkinchi tomondan, ijtimoiy taraqqiyotning strategik kafolatiga aylanadi[4]. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida davlat xizmatlarini takomillashtirish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish va raqamli transformatsiya asosida rivojlantirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasi, "Elektron hukumat" tizimini joriy etish, davlat xizmatlari markazlarining faoliyatini kengaytirish kabi tashabbuslar davlat xizmatlarida manfaatlar uyg'unligini ta'minlash va ularni barqaror taraqqiyot strategiyasi bilan uyg'unlashtirish jarayoniga katta turtki berdi[5]. Xorijiy mamlakatlar tajribasi ham shuni ko'rsatadiki, davlat xizmatlarida manfaatlar uyg'unligini ta'minlash faqatgina byurokratik tizimni isloh qilish yoki xizmatlarni elektronlashtirish bilangina chegaralanmaydi. Aksincha, bu jarayon ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish, fuqarolik jamiyati institutlari bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish, korrupsiya va manfaatlar to'qnashuviga barham berish, shuningdek, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish orqali amalga oshiriladi. Masalan, Skandinaviya davlatlarida davlat xizmatlari tizimi fuqarolarning ehtiyojlariga moslashuvchanlik, shaffoflik va yuqori darajadagi ishonch asosida qurilgan bo'lsa, Osiyo mamlakatlari, jumladan, Janubiy Koreya va Singapurda innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali xizmatlar samaradorligi yuqori darajaga ko'tarilgan[6].

Adabiyotlar tahlili. Davlat xizmatlari tizimida manfaatlar uyg'unligi va barqaror taraqqiyot strategiyasini ta'minlash masalasi xalqaro ilmiy doirada ham keng muhokama qilinib kelinmoqda. Shu nuqtai nazardan, chet el olimlarining tadqiqotlari mazkur mavzuning nazariy-metodologik asoslarini shakllantirishda muhim manba hisoblanadi. Masalan, J. Pierre o'zining "The Politics of Bureaucracy" asarida davlat xizmatlari institutlarini modernizatsiya qilish jarayonida manfaatlar uyg'unligi konsepsiyasini keng yoritib, byurokratik boshqaruv va demokratik qadriyatlar o'rtasidagi muvozanatni barqaror taraqqiyotning asosi sifatida ta'riflaydi[7]. Unga ko'ra, davlat xizmatlari tizimida manfaatlar uyg'unlashuvi nafaqat siyosiy qarorlar qabul qilish mexanizmlarida, balki ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Pierre manfaatlar uyg'unligini ta'minlash jarayonida davlat va fuqarolar o'rtasidagi ijtimoiy shartnoma modeliga alohida e'tibor qaratadi va bu jarayonni boshqaruv tizimining shaffofligi, hisobdorligi va samaradorligi bilan bog'laydi. Shuningdek, C. Pollitt va G. Bouckaert o'zlarining "Public Management Reform: A Comparative Analysis" tadqiqotida davlat xizmatlarini isloh qilishning xalqaro tajribalarini tahlil qilgan holda, manfaatlar uyg'unligi va barqaror taraqqiyotning o'zaro bog'liqligini ilmiy asoslab beradi[8]. Ular turli mamlakatlarda davlat xizmatlari tizimining rivojlanishini qiyosiy o'rganib, xususan, Yevropa va Osiyo davlatlari misolida manfaatlar uyg'unligi strategiyasi raqamli texnologiyalar, ochiqlik va ijtimoiy ishtirok orqali muvaffaqiyatli amalga oshirilganini ko'rsatadilar. Pollitt va Bouckaert fikricha, davlat xizmatlarida manfaatlar uyg'unligini ta'minlamasdan turib, barqaror taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish mumkin emas, chunki bu ikki jarayon bir-birini to'ldiruvchi, uzviy bog'liq bo'lgan tizimlardir. Mazkur nazariy qarashlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, xorijiy olimlarning tadqiqotlari davlat xizmatlarida manfaatlar uyg'unligini ta'minlash va uni barqaror taraqqiyot strategiyasi bilan bog'lash masalasi global boshqaruv konsepsiyasida markaziy o'rin tutishini ko'rsatadi. Ushbu ilmiy yondashuvlar O'zbekiston sharoitida ham davlat xizmatlari tizimini isloh qilish va ijtimoiy manfaatlar uyg'unligini ta'minlash jarayonida muhim metodologik manba sifatida xizmat qiladi.

Metodologik qism. Mazkur tadqiqot metodologik asoslarini shakllantirishda davlat xizmatlari tizimida manfaatlar uyg'unligi va barqaror taraqqiyot strategiyasini o'rganishga qaratilgan kompleks ilmiy yondashuvlar qo'llanildi, jumladan, nazariy-tahliliy usul orqali manfaatlar uyg'unligining konseptual asoslari hamda barqaror rivojlanish nazariyalari o'zaro qiyosiy tahlil qilindi, strukturaviy-funksional yondashuv yordamida davlat xizmatlari tizimining institutsional mexanizmlari va ularning ijtimoiy manfaatlar ta'minlashdagi funksional imkoniyatlari ilmiy asosda tadqiq qilindi, qiyosiy-huquqiy metod orqali xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari, jumladan, Yevropa va Osiyo davlatlarida manfaatlar uyg'unligini ta'minlash amaliyoti tahlil etilib, ularning O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari baholandi, shuningdek, sistemali yondashuv asosida davlat xizmatlari tizimi yaxlit ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tizimning tarkibiy qismi sifatida qaralib, unda manfaatlarining uyg'unligi va barqaror taraqqiyot o'zaro ta'sir etuvchi elementlar sifatida izchil tahlil qilindi; shu bilan birga, normativ-huquqiy metod asosida milliy qonunchilik hujjatlari va xalqaro meyoriy hujjatlar ilmiy-huquqiy jihatdan sharhlab chiqildi, empirik kuzatuv va kontent-tahlil metodlari yordamida amaldagi davlat xizmatlari tizimida mavjud muammolar va ularning ijtimoiy manfaatlar uyg'unligi hamda barqaror taraqqiyot strategiyasiga ta'siri aniqlanib, tadqiqotning ilmiy xulosalari shakllantirildi.

Natijalar. O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, davlat xizmatlari tizimida manfaatlar uyg'unligi va barqaror taraqqiyot strategiyasining o'zaro aloqadorligi chuqur ilmiy asoslangan holda namoyon bo'ldi, chunki bir tomondan, manfaatlarining uyg'unlashuvi fuqarolarning davlat boshqaruviga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi va davlat hamda jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy shartnoma mexanizmlarini yanada kuchaytiradi, ikkinchi tomondan, barqaror taraqqiyot strategiyasining amaliyotga joriy etilishi davlat xizmatlarini samaradorlik, shaffoflik va innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirishga olib keladi, natijada ijtimoiy ehtiyojlarining qondirilishi, iqtisodiy imkoniyatlarning kengayishi va ekologik barqarorlikni ta'minlash jarayonida manfaatlarining o'zaro muvozanatlashuvi kuzatiladi, shu tariqa davlat xizmatlari tizimi nafaqat ma'muriy mexanizm, balki jamiyatni barqaror taraqqiyot sari yetaklovchi strategik institut sifatida shakllanadi.

Muhokama. Davlat xizmatlari tizimida manfaatlar uyg'unligi va barqaror taraqqiyot strategiyasining uzviy aloqadorligini talqin qilish jarayonida xorijiy olimlar o'rtasida turli nuqtai nazar va bahslar kuzatiladi. Masalan, J. Pierre manfaatlar uyg'unligi masalasini demokratik boshqaruvning markaziy tamoyili sifatida baholab, davlat xizmatlari tizimini fuqarolar bilan davlat o'rtasida o'zaro ishonch va kelishuvni ta'minlovchi ijtimoiy shartnoma sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, davlat xizmatlarining muvaffaqiyati byurokratik apparatning samarali faoliyati emas, balki manfaatlarining balanslashuvi orqali siyosiy legitimlik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga bog'liqdir. Pierre o'z yondashuvida Skandinaviya davlatlari misolida davlat xizmatlari tizimida manfaatlar uyg'unligi qanday qilib ijtimoiy tenglik, farovonlik va barqaror rivojlanishni kafolatlashini ilmiy asoslab beradi[9]. Biroq, C. Pollitt va G. Bouckaert (2017) mazkur masalaga nisbatan biroz tanqidiy pozitsiyani ilgari suradilar. Ularning fikricha, manfaatlar uyg'unligi g'oyasi amaliyotda ko'pincha deklarativ xarakterga ega bo'lib, real boshqaruv jarayonlarida davlat apparati manfaatlari va fuqarolar manfaatlari o'rtasida ziddiyatli vaziyatlar yuzaga keladi. Ular Yevropa Ittifoqi davlatlari misolida davlat xizmatlari tizimidagi islohotlar ko'pincha siyosiy manfaatlariga yo'naltirilishi, natijada fuqarolik jamiyatining real ehtiyojlari ikkinchi planga surilib

qolishini ta'kidlaydilar. Pollitt va Bouckaert nazarida, barqaror taraqqiyot strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun manfaatlar uyg'unligi konsepsiyasi real mexanizmlar, ya'ni shaffof hisobdorlik, korrupsiyaga qarshi qat'iy chora-tadbirlar va kuchli institutlar bilan qo'llab-quvvatlanishi shart. Mazkur bahsda Pierre manfaatlar uyg'unligini konseptual jihatdan demokratik boshqaruvning asosi sifatida ko'rib, u orqali ijtimoiy barqarorlik va fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini mustahkamlash zarurligini ilgari suradi[10]. Pollitt va Bouckaert esa manfaatlar uyg'unligini nazariy tamoyil sifatida inkor etmagan holda, uni amaliyotda samarali ishlashi uchun institutsional va huquqiy kafolatlar zarurligini ta'kidlaydilar. Shunday qilib, bir tomondan, Pierre manfaatlar uyg'unligini barqaror taraqqiyotning tayanch konsepsiyasi sifatida himoya qilsa, ikkinchi tomondan, Pollitt va Bouckaert uni amalda ishlash mexanizmlari yetarli darajada rivojlanmaganini tanqid qiladilar. Bu polemika davlat xizmatlari tizimini o'rganishda muhim ilmiy ahamiyatga ega, chunki u manfaatlar uyg'unligini nafaqat nazariy paradigma sifatida, balki real boshqaruv jarayonida qanday mexanizmlar orqali amalga oshirilishi mumkinligini ko'rsatadi. Natijada, davlat xizmatlari tizimida manfaatlar uyg'unligini ta'minlash masalasi faqat kontseptual darajada emas, balki aniq institutsional, huquqiy va boshqaruv mexanizmlarini ishlab

chiqishni talab etadigan kompleks masala sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa. Ushbu tahlillardan kelib chiqib, davlat xizmatlari tizimida manfaatlar uyg'unligini ta'minlash va uni barqaror taraqqiyot strategiyasi bilan uyg'unlashtirish zamonaviy davlat boshqaruvining eng muhim vazifalaridan biri ekanligi yaqqol ko'rinadi. Birinchidan, manfaatlar muvozanatli uyg'unlashuvi davlat va fuqarolar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlashga, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga hamda siyosiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Ikkinchidan, barqaror taraqqiyot strategiyasi davlat xizmatlari tizimida samaradorlik, shaffoflik va innovatsion yondashuvlarni joriy etishni talab etadi, bu esa ijtimoiy ehtiyojlarning keng qamrovda qondirilishiga zamin yaratadi. Uchinchidan, xorijiy tajriba va milliy amaliyotning qiyosiy tahlili ko'rsatadiki, manfaatlar uyg'unligi va barqaror taraqqiyot strategiyasining uzviy birligi davlat xizmatlari sifatini oshirish, korrupsiya xavfini kamaytirish va ijtimoiy tenglikni ta'minlashda hal qiluvchi o'rin tutadi. Shunday qilib, davlat xizmatlari tizimi faqat ma'muriy mexanizm emas, balki jamiyatni barqaror taraqqiyot sari yetaklaydigan strategik institut sifatida qaralishi lozim, bunda manfaatlar uyg'unligi konsepsiyasi esa uning nazariy poydevori va amaliy kafolati bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Хабибуллаева Д. Давлат хизматлирин кўрсатишда инсон ҳуқуқларини таъминлаш механизмлари //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2025. – Т. 4. – №. 5. – С. 105-108.
2. Atxamjonovna, B. D., & Shohbozbek, E. (2025). Respublikamizda maktabgacha ta'limda yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish. Global Science Review, 4(5), 221-228.
3. Нишанов А., Саидрасулов Ш. Электрон давлат хизматлари //digital transformation and artificial intelligence. – 2024. – Т. 2. – №. 1. – С. 112-119.
4. Abdusattarovna, O. R. X., & Shohbozbek, E. (2025). Ijtimoiy falsafada zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida sog'lom turmush tarzini shakllantirish. Global Science Review, 4(5), 175-182.
5. Эркинов И. Э. Ў. Давлат хизматлари кўрсатиш тизимини ислох қилиш ва унинг ўзига хос хусусиятлари //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 700-708.
6. Diloram, M., & Shohbozbek, E. (2025). O'zbekistonda yoshlarning ma'naviy dunyo qarashini rivojlantirishning pedagogik asoslari. Global Science Review, 4(5), 207-215.
7. FM M., Odiljonovich S. N. Davlat xizmatlarini rivojlantirishda sun'iy intellektning o' rni //Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. – 2024. – С. 118-123.
8. Ергашбаев, Ш. (2025). O'zbekiston sharoitida uzluksiz ta'lim tizimi orqali yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish. Объединяя студентов: международные исследования и сотрудничество между дисциплинами, 1(1), 314-316.
9. Muzaffar o'g'li E. X. Davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi: e-gov tizimi va aholiga qulayliklar //«ЗА НАИВЫСШИЕ ЗАСЛУГИ». – 2024. – Т. 1. – №. 1.
10. Muruvvat, A., & Shohbozbek, E. (2025). O'zbekistonda ma'naviy va ahvoqiy qadryatlarda maktabgacha ta'limning ro'li. Global Science Review, 3(2), 246-253.